

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA EKOLOGIK-HUQUQIY
TAR'GIBOT ISHLARINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

To'ranazarov Tal'at Abdumurod o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti 4 -mintaqaviy
hudud 9-son Tergov hibsxonasi boshlig'ining yordamchisi smena boshlig'i mayor*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari, bu boradagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada ekologik-huquqiy targ'ibotning maqsad va vazifalari, uning jazo ijro etish tizimidagi ahamiyati, shuningdek, ekologik onggni oshirish, qonunchilikka rioya etish madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan amaliy yo'nalishlar tahlil etiladi. Xulosa qismida jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar va takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Jazoni ijro etish muassasalari, ekologik-huquqiy targ'ibot, ekologik madaniyat, ekologik ong, qonuniylik, mahkumlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquqiy tarbiya, targ'ibot faoliyati.

Kirish

Jazoni ijro etish muassasalari nafaqat jazo o'tash, balki shaxsni ijtimoiy va huquqiy jihatdan tuzatish, uni jamiyatga moslashtirish vaqtida unda huquqiy madaniyatni shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda ekologik muammolarning jiddiylashuvi, atrof-muhitni muhofaza qilishning davlat siyosatida ustuvor yo'nalish ekanligi, barcha jamiyat a'zolarining, jumladan, jazo ijro etish tizimidagi shaxslarning ham ekologik-huquqiy onggni oshirishni taqozo etadi. Shu bois, jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda ekologik xavfsizlik masalasi global darajaga yetgan. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish va ekologik huquqbazarliklar ko'payishi natijasida huquqiy-ekologik madaniyatni oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Asosiy qism

Jazo ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibotning asosiy maqsadi mahkumlarda ekologik qonunchilikka hurmat va rioya etish tuyg'usini shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish, shuningdek, ularning jamiyatga

qaytgandan so'ng ekologik muammolar yechimiga faol hissa qo'shishlari uchun zamin yaratishdan iborat.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini osh irish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriyl amal qilmoqda.[1]

Raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy ekologik monitoring mexanizmini yaratish, ekologik madaniyatni yanada oshirish, bioxilma-xillikni asrash va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish, daraxt, butalarni ekish va yashil hududlarni tashkil qilish hamda ularni muhofaza qilishning yangi tartiblarini joriy qilish orqali ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-sod Farmoni qabul qilingan.[1]

Mamlakatimizda "yashil" transportga jadallik bilan o'tilishi, muqobil energiya manbalari ulushining ko'payishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarish hajmining oshishi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi keng joriy etilishi, shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining (keyingi o'rnlarda — Ekologiya vazirligi) tashkil etilishi, "yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik maqsadiga aylanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birgalikda, davlat organlarining hozirgi iqlim o'zgarishi sharoiti bo'yicha ishonchli monitoring ma'lumotlari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi hamda ilmiy asoslangan tahliliy va uslubiy ma'lumotlar yetishmasligi ushbu sohada to'laqonli ilmiy tadqiqotlarni olib borishga to'sqinlik qilmoqda.

Xususan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishning yagona davlat siyosati, idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimi mavjud emas, shuningdek, iqlim o'zgarishi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni monitoring qilish, toplash, tahlil qilish, saqlash va uzatish ishlari sustligicha qolmoqda. Ayrim idoralarda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish uchun tarmoq strategiyasi mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldaggi PF-106-sod Farmonida bir qancha ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.[2] Masalan: Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha milliy strategiyani hamda ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini ishlab chiqish; Xalqaro hamkorlikni tashkil etish va xalqaro iqlim moliyasini jalb qilish

bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; COP28 yakuni bo'yicha tadbirlar va tashabbuslarni amalga oshirish; Iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni amalga oshirish; Iqlim o'zgarishining iqtisodiy tarmoqlarga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar; Soha ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va hisobot berishga yondashuvni tizimlashtirish; Iqlim o'zgarishi va atrof-muhit bo'yicha xabardorlikni oshirish, ta'lim tashkilotlari, OAV va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va boshqalar.

Ekologik huquqbazarlik – O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligini buzuvchi, qonunga xilof aybli harakat, harakat yoki harakatsizlikdir. Bu jinoiy, ma'muriy, intizomiy va boshqa javobgarlik uchun asosdir. [3]

Tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi aybli harakat yoki harakatsizlik uchun asosan yuridik shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Bunday huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik, qoida tariqasida, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qoidalalar va qonunchilik talablariga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslar zimmasida bo'ladi. Shunday qilib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq jismoniy va mansabdar shaxslarning ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklari uchun ma'muriy choralar ko'rildi. Masalan: jarima solinishi, ma'muriy huquqbazarlik sodir etish quroli yoki bevosita predmeti bo'lgan ashyoni musodara qilinishi; ushbu shaxsga berilgan maxsus huquqdan mahrum qilinishi mumkin. Jinoiy javobgarlik og'ir oqibatlarga olib kelgan yoki katta zarar yetkazgan ekologik jinoyatlar uchun nazarda tutiladi. Zararli kimyoviy moddalar bilan ishslash qoidalarini buzish, suv va suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish, shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazish kabi jinoyatlar.

Hozirgi vaqtida jazoni ijro etish muassasalarida huquqiy targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ekologik yo'nalishdagi ma'rifiy tadbirlar yetarli darajada emas. Aksariyat hollarda ekologik-huquqiy bilim berish umumiy huquqiy targ'ibot doirasida amalga oshiriladi. Bu esa maxsus ekologik bilimlar yetarlicha o'zlashtirilmasligiga sabab bo'ladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibotning quyidagi muhim jihatlari mavjud:

1. Ekologik qonunchilikka rioya etish. Mahkumlar o'tayotgan jazo davrida atrof-muhitga zarar yetkazuvchi harakatlardan saqlanishlari, muassasa hududida belgilangan ekologik qoidalarga (chiqindilarni saralash, suv va energiyani tejash va h.k.) amal qilishlari lozim.

2. Ekologik onggni oshirish. Mahkumlarga ekologik muammolarning global va mahalliy ahamiyati, inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri, ekologik huquqlar va majburiyatlar haqida ma'lumot berish orqali ularning ekologik savodxonligini oshirish.

3. Jamiyatga moslashish. Jazodan so'ng jamiyatga qaytayotgan shaxslarning ekologik mas'uliyatli fuqaro sifatida faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish.

Jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish zarur:

- Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni, Jinoyat-ijro kodeksining tegishli moddalari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni jazoni ijro etish muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, mahkumlar uchun tushunarli bo'lgan mazmunda targ'ibot materiallarini tayyorlash.
- Tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish. Jazoni ijro etish muassasalari rahbariyati tomonidan ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'linmalar yoki xodimlarni belgilash, ularning vazifa va funksiyalarini aniqlashtirish.
- O'quv-metodik materiallarni yaratish va joriy etish. Mahkumlarning bilimi va tushunish darajasiga mos ravishda turli ko'rinishdagi (broshyuralar, bukletlar, plakatlar, videoroliklar, infografikalar) ekologik-huquqiy targ'ibot materiallarini tayyorlash va muassasalar hududida keng targ'ib qilish.
- Targ'ibot tadbirlarini o'tkazish. Mahkumlar bilan ochiq muloqotlar, leksiylar, seminarlar, tanlovlar (masalan, "Eng yaxshi ekologik plakat" yoki "Ekologik bilimlar bellashuvi") tashkil etish. Tabiatni muhofaza qilish kunlari va bayramlarini nishonlash.
- Xodimlarning malakasini oshirish. Jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining (targ'ibotchilar, psixologlar, madaniy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilar) ekologik-huquqiy bilimlarini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy targ'ibot usullaridan xabardor qilish.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaliy ishlar. Muassasa hududini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash bo'yicha tadbirlar tashkil etish. Bunday ishlarda mahkumlarni faol ishtirok etishga jalb qilish.
- Hamkorlikni kuchaytirish. Ekologiya sohasidagi davlat organlari (Davlat ekologiya qo'mitasi), nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning tajribasini o'rganish va birgalikda tadbirlar o'tkazish.

Jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot faoliyatini tashkil etishda quyidagi muammolar uchraydi:

- Material-texnik bazaning yetishmasligi: Targ'ibot materiallarini tayyorlash va namoyish etish uchun zarur jihozlar va ko'rgazmali qurollarning yetarli emasligi.
- Yechim: Davlat byudjetidan maqsadli mablag' ajratish, homiyarlarni jalb qilish, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.
- Xodimlarning malakasi va motivatsiyasining pastligi: Targ'ibot ishlarini yuritishga mas'ul xodimlarning yetarli bilim va ko'nigmaga ega emasligi yoki bu faoliyatga yetarli e'tibor qaratmasligi.

- Yechim: Xodimlar uchun muntazam o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish, ularning samarali mehnatini rag'batlantirish tizimini yaratish.
 - Targ'ibotning bir xil va zerikarliligi: Mahkumlarning e'tiborini jalb eta olmasligi, mazmunan eskirgan targ'ibot usullaridan foydalanish.
 - Yechim: Zamонавиу targ'ibot usullari (interaktiv usullar, multimedia, o'yinlar) ni qo'llash, mahkumlarning o'zlarini ham faol ishtirokchi sifatida jalb qilish.
 - Ekologik-huquqiy targ'ibotning tizimli emasligi: Targ'ibot ishlarining rejasi bo'limgan, uzluksiz bo'limgan holda olib borilishi.
 - Yechim: Muassasaning yillik va choraklik ish rejalariga ekologik-huquqiy targ'ibot bo'limini aniq kiritish, monitoring va baholash tizimini joriy etish.

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, jazo ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot faoliyatini takomillashtirish nafaqat qonuniylikni mustahkamlash, balki mahkumlarning ekologik madaniyatini oshirish, ularni ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish va ekologik muammolar yechimiga hissa qo'shishi uchun sharoit yaratishdek muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Shu munosabat bilan, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Vazirliklar va idoralar o'rtaсидаги hamkorlikni kuchaytirish, Adliya vazirligi, Davlat ekologiya qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar tomonidan jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarini muvofiqlashtirish va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.
2. Tashkiliy-huquqiy bazani mustahkamlash, jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun ekologik-huquqiy targ'ibot sohasidagi malaka oshirish kurslarini joriy etish va ularning faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish.
3. Innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash va zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mahkumlarning ekologik-huquqiy onggni oshirishga qaratilgan interaktiv metodlarni joriy etish.
4. Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish, jazoni ijro etish muassasalarida ekologik-huquqiy targ'ibot ishlarining samaradorligini muntazam ravishda o'rganib borish va natijalari asosida tegishli chora-tadbirlar belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF-81-соҳ 31.05.2023. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida <https://share.google/r6sJXDnXUD1poceUu>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.07.2024 yildagi PF-106-son
3. Aydarov Y.B. Providing environmental education to schoolchildren through the protection of the natural area. Tashkent, Science and Technology. 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2013.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Jo‘rayev A., Xodjayeva M. Ekologiya va huquqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
8. Internet manbalari: www.lex.uz, www.stat.uz.